



ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING "MATLAI SA'DAYN MAJMUA UL BAHRAYN" ASARINING YARATILISH TARIXI VA TUZILISHI

Panjiyev Jamshid Tohir o'g'li

Tel: 998996641678

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV asr tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan yaratilgan “Matla’ as-sa’dayn va majma’ al-bahrayn” asarining yozilish tarixi, uning yuzaga kelish sabablari hamda tuzilish xususiyatlari yoritilgan. Asarda Temuriylar davri siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti, shuningdek, muhim tarixiy voqealar batafsil bayon etilgan. Maqolada asarning manbashunoslik ahamiyati, tarixiy qiymati va uning Sharq tarixnavisligidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Abdurazzoq Samarqandiy, “Matla’ as-sa’dayn”, Temuriylar davri, tarixiy manba, Sharq tarixnavisligi, asar tuzilishi, manbashunoslik, XV asr, Markaziy Osiyo tarixi, Zafarnoma Sharafiddin Ali Yazdiy

O‘rta asr Sharq tarixnavisligi rivojida Abdurazzoq Samarqandiy muhim o‘rin egallaydi. Uning “Matla’ as-sa’dayn va majma’ al-bahrayn” asari Temuriylar davri tarixini yorituvchi eng ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Asar o‘zining aniq xronologiyasi, boy tarixiy ma’lumotlari va voqealarning bevosita guvohlar asosida yoritilgani bilan ajralib turadi.¹ Abdurazzoq Samarqandiy XV asrda Temuriylar saroyida yashab ijod qilgan ham tarixchi ham rasmiy davlat amaldori hisoblanib o‘sha davrni ochiq oydin o‘z asarida bayon etgan tarixiy shaxsdir. U Shohruh Mirzo saroyida xizmat qilgan hamda diplomatik vazifalarda Eron, Hindiston va boshqa hududlarga safar qilgan. U o‘z safarlari yani Elchilik aloqalarida munosib o‘rinlarga ega shaxsdir uning say harakatlari bilan Xitoy Hindison o‘sha davrning



eng kuchli davlatlari bilan yaxshi diplomatic aloqalar o'rnatilgan biz bundan shuni bilishimiz kerakki u mohir diplomat va uddaburon siyosatchi hisoblangan.² Shu sababli u ko'plab tarixiy voqealarning bevosita guvohi bo'lgan. "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" asari Temuriylar davlatining siyosiy va madaniy yuksalish davrida yozilgan bo'lib, muallif uni ikki buyuk davr — Amir Temur va Shohruh Mirzo hukmronligi tarixini yoritish maqsadida yaratgan. Muallif ushbu asarni ikki qismga bo'lishiga asosiy sabab shundaki dastlab u Amir Temurga sodiq xizmatchi hisoblangan so'ngra Temur vafotidan so'ng sulolani yetakchilaridan Shohruh Mirzoga xizmat qiladi va Shohruh davrida u 1422 yil Hindiston va Vijayangarga elchilik missiyasini uyushtirgan ko'plab masalalarda Shohruh Mirzo u bilan doimiy maslahatlashgan³ Asarning yozilishida saroy arxivlari, rasmiy hujjatlar va muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Samarqandiy ushbu asarni yozishda yana o'sha davr va undan oldin yashab o'tgan tarixiy shaxslarning asalaridan ham foydalangan. Misol uchun Amir Temur qo'shinida xizmat qilgan va o'sha davrning mashur tarixchisi Hofiz Abru asarlaridan foydalangan. Bu asarning o'sha davr va undan oldin yaratilgan manbalardan farqli tomoni shundaki bu asar haqiqatga juda yaqindir⁴ "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" asari asosan ikki katta qismdan iborat: qilib yaratilgan buning sababi yuqorida aytib o'tildi. Asarning Birinchi qism bu Amir Temur va uning davlatining shakllanishi ijtimoiy va siyosiy madaniy hayoti elchilik va diplomatik munosabatlari hukmdorlar tashrifi va ko'proq Usmonli davlati bilan olib borilgan aloqalar va urushlar aks ettirilgan. Va unda davlat boshqaruvi va siyosiy islohotlari yoritiladi.⁵ Muallif voqealarni ketma-ket va aniq xronologik tartibda bayon qiladi. Ikkinchi qismda esa Temurning o'limi va u tuzgan saltanatning parchalanish belgilari imperiya tarkibidan birin ketin ajralib mustaqil bo'lgan davlatlar o'sha davrning murakkab siyosiy jarayonlari va Shohruh Mirzo davridagi davlat obodonchiligi iqtisodiyot turli xil g'alayonlar va qo'zg'alonlar, va bundan tashqari Hirotning madaniy markaz sifatida rivojlanishi, ilm-fan va



san'at taraqqiyoti, diplomatik aloqalar batafsil tasvirlangan.⁶ Bu qism Temuriylar davlatining tinchlik va barqarorlik davrini kuchsizlanganligi davlatning parchalanishi belgilar va chetdan qilinayotgan turli hujumlar va Temuriy shaxzodalar o'rtasidagi toju-taxt masalalari haqida to'laligicha malumotlar keltiriladi. Asarning umumiy tuzilishi qat'iy xronologik asosga ega bo'lib, muallif tarixiy voqealarni izchil va mantiqiy tartibda joylashtirgan.⁷Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" asari Temuriylar davri tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar nafaqat siyosiy tarixni, balki ijtimoiy va madaniy hayotni ham chuqur yoritadi. Uning ilmiy ahamiyati shundaki, muallif voqealarni bevosita kuzatgan guvoh sifatida aniq va ishonchli ma'lumotlar keltirgan.⁸

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Abdurazzoq Samarqandiy. Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn. – Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- 2.Bartold V.V. Turkiston tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti.
- 3.G'afurov B. Tojiklar tarixi. – Dushanbe: Donish nashriyoti.
- 4.O'zbekiston tarixi (darslik). – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- 5.Bosworth C.E. The Islamic Dynasties. – Edinburgh: Edinburgh University Press.
- 6.Roemer H.R. The Timurid Period. – Cambridge History of Iran.
- 7.Manz B.F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge University Press.
- 8.Akademik S.P. Tolstov. Qadimgi va o'rta asr Sharq tarixiy manbalari. – Moskva.